

Azob



15:00 / 13.02.2021 3359

Od qavmi, har kuni yomg'ir yog'ishini kutar edi. Ular osmonga qarardilar lekin bir parcha bulut ham ko'rmasdilar. Ular yomg'irga muhtoj edilar. Ularda yomg'irga ulkan ishtiyoq bor edi. Kunlardan birida, bulutni, ular tomon kelayotganini ko'rib, juda xursand bo'lib, qichqirib yubordilar: «Bu yomg'i buluti! Bu yomg'ir buluti! Insonlar xursand bo'lishganidan raqsga tushishdi va bir-birlariga qichqirib: «Yomg'ir buluti! Yomg'ir buluti! Deyishardi. Hud esa, azob kelganini tushundilar. Hud ularga:

«Bu rahmat buluti emas, balki u alamli azob bo'lgan shamoldir», dedilar. Shunday bo'ldi ham. Qattiq shamol esdi, insonlar bunga o'xshashini ko'rmagan va eshitmagan edilar. Bo'ron ko'tarilib, daraxtlarni sug'urar, uylarni vayron qilar, hayvonlarni ko'tarib, uzoq joylarga otib yuborar edi. Cho'lning qumlari uchib, dunyo qorong'ulashdi, inson hech narsani ko'rmay qoldi. Ularni vahima bosib,

uylariga kirib, eshiklarni mahkam tanbalab oldilar. Bolalar onalarining pinjiga tiqilishdi, insonlar devorlarni quchoqlab olishdi, insonlar, xonalarga kirib ketishdi. Bolalar yig'lar, ayollar qichqirar, erkaklar duo qilib, yomg'ir so'rardilar. Guyo: **«Bugun Allohning amridan saqlovchi yo'qdir»** (*Hud surasi, 43-oyat*) deyayotgandek bo'lar edi.

Bu yetti kecha, sakkiz kunduz tinmadi. Qavm halok bo'ldi, ular xuddi arralab tashlangan xurmo daraxtlari kabi yotishar edi. Juda ajoyib manzara bo'ldi. Insonlar o'lik bo'lib, ularni qushlar yer edi, uylar xaroba bo'lib ularda boyo'g'lilar yashar edi. Hud va mo'minlar iymonlari bilan najot topishdi, Od qavmi esa, kufrlari va qaysarliklari uchun halokatga uchrashdi.

«Ogoh bo'lingkim, albatta, Odliklar Robbilariga kufr keltirgan edilar. Ogoh bo'lingkim, Hud qavmi Od yo'qolsin-e!» (*Hud surasi, 60-oyat*).

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad